

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

<https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu>

Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi tarbiya talqini

Sunnatova Gulchehra Ilhomovna

Jizzax shahar 1-sonli Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalari kecha va bugun qay ahvoldaligi keltirib o'tilgan. Aynan bugungi kunda maktabgacha ta'limga berilayotgan kuchli e'tibor va qo'yiladigan talablar. Tarbiyachilar tomonidan olib borilishi kerak bo'lgan didaktik o'yinlardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar ham keltirilgan.

Резюме

В статье описывается состояние дошкольного образования вчера и сегодня. В настоящее время это дошкольное образование является основным направлением и требованиями. Также есть рекомендации по эффективному использованию дидактических игр.

Abstract

The article describes the state of preschool education yesterday and today. It is the strong focus and demands on preschool education today. There are also recommendations for the effective use of didactic games by educators

Tayanch so'zlar: *Maktabgacha ta'lim muassasasi, tarbiyalanuvchi, talab, kuchli e'tibor, didaktik o'yinlar.*

Ключевые слова: *Учреждения дошкольного образования, дети, спрос, пристальное внимание, дидактических игр.*

Keywords: Preschool education, children , demand, strong attention, didactic games.

KECHA

Maktabgacha ta'lim sohasida misli ko'rilmagan o'zgarishlarni bugun har bir yurtdoshimiz sezib, kuzatib turibdi. Ta'limning poydevori hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimiga davlat tomonidan bu qadar tizimli va bir-birini to'ldiruvchi e'tibor hamda amaliy yordam kuzatilmagan, desak adashmagan bo'lamiz.

Sohada yig'ilib qolgan muammolarni hal etish va 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning to'laqonli ta'lim-tarbiya olishini ta'minlash masalasi davlatimiz rahbari tomonidan kechiktirib bo'lmas vazifa sifatida ilgari surildi. Chunki, bog'chalar ta'lim muassasasi vazifasini bajarish o'rniga ota-ona ishda bo'lgan vaqtda bolaga qarab turadigan muassasaga aylanib qolganligi, qamrovning pastligi, binolarning ta'mirtalabligi, boshqa maqsadlarda ishlatilgani, metodik jihatdan to'liq ta'minlanmagani, pedagoglar ijtimoiy himoyasi va maoshining pastligi kabi kompleks muammolarni hal etish kechiktirib bo'lmas masala bo'lib, kelgan edi. Keyingi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizga kamaygani, 2,45 million boladan 818 ming nafarigina bog'chalarga qamrab olingani bu fikrlar isboti bo'la oladi. Maktabgacha ta'lim muassasalari infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasining yaroqsiz holati bolalarni maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olishni ta'minlashga imkonning kamligini ko'rishimiz mumkin.

2017-yil 16-avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilish maktabgacha ta'lim tizimi tarixida qoladigan yig'ilish bo'ldi¹. Shu kuni mamlakatimiz Prezidenti davlat milliy genofondini mustahkamlash borasida gapirib, ta'limning ilk bosqichini rivojlantirishning ko'plab yo'nalishlarini belgilab berdi.

Xususan, maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yildi.

¹ O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19 oktabr kuni maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan ma'ruzasi

Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlari "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat yo – falokat masalasidir" deb aytilgan fikrlarini takror va takror aytishga to'g'ri keladi: ta'lim-tarbiya — biz uchun hayot-mamot masalasidir, — dedi Prezident. Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biror-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz albatta. Bunday kadrlarni tayyorlashda, biz ko'proq maktabgacha ta'lim tarbiyaga katta e'tibor qaratmog'imiz zarurdir, chunki biz uy qurmoqchi bo'lsak avvalo, uying fundamentini mustahkam qilib quramiz chunki, u uy biz uchun uzoq yillar xizmat qilishi uchun.

Bog'cha tarbiyasini olgan bola bilan bog'chaga bormagan (uyda o'tirgan) bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi o'rtasida juda katta farq borligini sezmasdan ilojimiz yo'q albatta.

Shuning uchun ham biz maktabgacha ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish masalasi davlat siyosati darajasigacha ko'tarildi va bu borada katta ishlar amalga oshirilmoqda. Agar shu ishni har tomonlama puxta o'ylab amalga oshirmasak, butun ta'lim tizimida sifat o'zgarishiga erishishimiz, ta'limning uzluksizligini ta'minlashimiz qiyin bo'ladi, — deya ta'kidladi Shavkat Mirziyoyev.

"Bolalik-bu ko'p savollar, imkoniyatlar va oqibatlar davri"-deydi² A.Alder. Shuning uchun biz bolalarning hech bir savolini javobsiz qoldirmasligimiz, ularning har bir qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashimiz darkor. Shu bilan birga ular qanday o'yinlarga qiziqishini va uning oqibatlarini ham tahlil etishimiz darkor.

BUGUN

Maktabgacha ta'lim vazirligi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli qaroriga

² Quronov.M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz... .T. "Ma'naviyat", 2014, 22-bet.

muvofig³ bu sohada yangi tizim yaratildi.

Yangi vazirlik oldiga maktabgacha ta'lim sohasida:

- yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish,
- maktabgacha ta'lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash,
- ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash,
- maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish,
- ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash,
- maktabgacha tarbiya muassasalarini milliy madaniy va tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqish uyg'otadigan o'quv, uslubiy, didaktik materiallar, o'quv o'yinlari va o'yinchoqlari, badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash;
- rahbarlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish. va bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini yuqori kasbiy darajada hal qilishga qodir zamonaviy pedagogik texnologiyalar va usullar asosida maktabgacha ta'lim tizimining pedagogik xodimlari;
- maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish tizimini yaratish va o'quv jarayoniga jalb qilish tajribali, malakali va o'qituvchilar va mutaxassislar;
- maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga bolalarni saqlash uchun munosib sharoitlar, shu jumladan to'liq, oqilona, muvozanatli, sog'lom ovqatlanish, ochiq havoda o'yinlar va mashqlarni hajm va intensivlikda ta'minlashga qaratilgan shart-sharoitlarni yaratish. ko'ngilochar va ma'rifiy tadbirlar elementlari bilan oqilona tibbiy retseptlar bilan belgilanadi,
- bolalarga tibbiy yordam ko'rsatadigan maktabgacha ta'lim muassasalarida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan muvofiqlashtirish va ularning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish bo'yicha profilaktika choralarini ko'rish,

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli qarori

Bugungi globallashuv jaryonlarida yashar ekanbiz maktabgacha ta'lim tarbiya tizimida metodik ko'mak qanchalik zarur?

Har qanday ta'limning asosi — metodika, jumladan, maktabgacha ta'limniki ham. Maktabgacha ta'limni sifat bosqichiga ko'tarishda yangi ta'lim metodlari, innovatsion texnologiyalarning ahamiyati katta. Sababi MTTning moddiy-texnik bazasi yuqori bo'lsa-yu, tarbiyachi bola bilan ishlamasa, unga har kuni yangi ma'lumotlarni o'rgatmasa, hamma qilingan harakatlar natijasi nolga tenglashib qoladi. Sohadagi mutaxassislar mahoratini oshirish, ularga zaruriy metodik ko'mak berish maqsadida Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tashkil etildi.

2020-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasida ham aynan shu tizimga to'xtalib o'tganligini ko'rishimiz mumkin.

Biz islohatlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz albatta.

Biz oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda avallo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innavatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim⁴.

Joriy yil yakuniga ko'ra maktabgacha ta'lim qamrovi 65%ga 2023 yil oxirida esa 75 %ga yetkaziladi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun byudjetdan 600 milliard so'm subsidiya berish hisobidan qo'shimcha ravishda 2 mingta nodavlat bog'cha tashkil etilib, xususiy sector ulushi 25 %ga yetkazilishi haqida izoh berib o'tdi prezidentimiz⁵.

⁴ 2020-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasi

⁵ 2020-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasi

Shu bilan bir qatorda yana 2021 yilda maktabga tayyorlashning bepul tizimi bilan 560 ming nafar 6 yoshli bolalar yoki ularning 82 % qamrab olinadi.

Shuning uchun ham endi biz yosh avlodga bog'cha, maktab oliygohda sifatli ta'lim berishni yo'lga qo'yamiz, ular jismoniy va ma'naviy sog'lom, vatanparvar insonlar bo'lib, ulg'ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz deydi o'z ma'ruzasida prezidentimiz Sh.Mirziyoyev

Tarbiyalanuvchilarning ongi, dunyoqarashini o'stirish, ularni mashg'ulotlarda erkin fikrlaydigan erkin ishtirokchiga aylantirish nihoyatda muhimdir. Tarbiyachi mashg'ulotda boshqaruvchi, bolalar esa ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi. Maktabgacha ta'limda ko'proq bolalarning yoshi, fiziologik holatini hisobga olish lozimligini unutmash kerak. Oddiy, oson va kam vaqt sarflanadigan o'yin mashqlaridan foydalanib, faollik markazlarida ish olib borish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongi, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatlarini, mustaqil ishlash ko'nikmasini, ya'ni hayotiy kompetensiyasini rivojlantiradi⁶.

Bolalarni o'yinlar orqali ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda ularning o'ynayotgan o'yinchoqlari ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada birinchi prezidentimiz jonkuyarlik bilan shunday degan edi:-“ ... har qaysi go'dak ilk bor olamni o'z atrofidagi ashyo va buyumlar, jumladan, o'yinchoqlar orqali anglashini inobatga oladigan bo'lsak, ularning inson tarbiyasidagi o'rni beqiyos ekani ayon bo'ladi. O'yinchoqlar obrazi bolaning murg'ak tasavvuriga bamisoli toshga o'yilgan naqshdek muhrlanib, uning ongida bir umr saqlanib qoladi. Go'dakning ulg'ayib, kasb tanlashi, kelajakda qanday yo'ldan borishi, o'zining hayot tarzini qanday axloqiy-ma'naviy asoslarga qurishi ham, hech shubhasiz, uning bolalikda qanday o'yinchoqlar bilan oshno bo'lib o'sgani bilan belgilanadi.”⁷ Bu fikr bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan o'yinchoqlarni ham tanlashga e'tiborni qaratishimiz lozimligini yana bir bor isbotlaydi.

⁶ O'sha manba

⁷ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T. “Ma'naviyat”, 2008, 43-bet

Demak, maktabgacha ta'limning ertangi porloq kelajagidan barchamiz umidvor va manfaatdor bo'lmog'imiz kerak.

Adabiyotlar

1. <https://lex.uz>. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. 2019 yil 16 dekabr.
 2. <https://lex.uz>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. 2018 yil 21 sentabr.
 3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2020 yil 29-dekabrda.
 4. Quronov.M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz... .T. "Ma'naviyat", 2014, 22-bet.
 5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T. "Ma'naviyat", 2008, 43-bet.
-